

**“BOBURNOMA” MATNIDAGI SHERIY PARCHALARNI XORIJ RISOLA VA
ROMANLARIDAGI TALQINI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10556899>

Gofurova Gulhayo Tolibjon qizi

*Andijon viloyati Andijon shahar 48-umumta’lim maktabi
ingliz tili o’qituvchisi*

Anotatsiya: *Ushbu maqolada horij boburshunosligida “Ajoyib kishilar hayotidan” hamda “Hindiston xukumdorlari” turmushida yozilgan risola va romanlar, ilmiy-tatqiqot ishlari etarli o’rganilmaganligi qayd etilib “Boburnoma” matniga uchraydigan va boshqa she’riy parchalarni xorij sharqshunoslarning she’riy san’atlarni tarjima va tahlil qilish mahoratlari o’rganilgan.*

Kali t so’zlar: *risola, poman, xukumdor, she’r, ruboiy, yo’lbars.*

Annotation: *In this article, I wish to report about verses of Babur the verses of Babur in the Babur- name (Memoirs), in different fictions and the valuable ideas of foreign literary scholars on the works of the author , its fried analyses Also, and we come to conclusion that the verses in the different works of fictions: such as “Rulers of India”, The Life of Great people in spite of the great interest which scholars have evinced in the Imperator Babur, ever since its translations and publications of this memoirs still is not enough learned.*

Key words: *norel, fiction, verse, Ruller, tiger, and so on.*

Shuni alohida takidlash lozimki ,respublikamnz osmonida istiqloq quyoshi po orlay boshlagandan buyon o’tgan qisqa vaqt ichida Bobur ijodini o’rganish borasida sezilarli ish amalga oshirildi .Bobur ijodi bo’yicha nomzodlik, doktoplik ishlari himoya qilindi ,risola, ilmiy maqolalar chop etildi xotirotlar nashir qilindi, xopij bobur shunosligida dissertatsiyalar yoqlandi.To’gri, ammo Z.M. Bobur haqida yaratigan risola va romanlar, ilmiy tatqiqot ishlari xanuzgacha yetarlicha o’rganilgani yoq. Hattoki, o’zimizda yaratilgan romanlar , dostonlar, folklyor asarlari ham tatqiq qilingani yoq.

Ustoz Oybekning hali kopchilik nazariga tushmagan asar larini o’qir ekanmiz, hamisha ijod va mehnat zaqi bilan yashagan ulkan san’atkor siymosi gavidalanadi. Ustoz xastalangandan keyin, toplagan materiallari chala , Temur va Bobur yashagan davirni yakqalam qilgan dostonlari esa songi nuqtasiz qoldi. Oybek bu dostonlar ustida umrining songi yillarida ishladi.”Asrlarni sokib chokini, ko’zlarimga surib xokini, tarixlarni bir -bir titurmen, afsonalar topib biturmen”, deb yozgan edi. U asarlar chokini sokib, Bobur va Temur siymolariga ham nazar tashladi.

Oybekning Bobur siymosi bilan qiziqishi hind -o'zbek xalqlari ortasidagi do'stlik rishtalarining shu davirda ayniqsa mustahkamlanishi bilan bogliq edi. Shuning uchun ham adib oz dostoni uchun Bobur hayotining Hindistonda kechgan davrini tanlab oldi.

Muallif dostonda sarkarda Bobur bilan shoir Boburni bir -biridan ajratmaydi. Uning sohibqiron sifatidagi salbiy failzatlaridan ham koz yummaydi. U vatanidan

judo bolgan Boburning fojiasini ko'rsatishga diqqat -e'tiborini qaratadi. Batan va shahs, vatan va ijod mavzuyi dostonning asosiy goyaviy yonalishini belgilab keladi.¹⁸ Albatta, dostonni o'rganish, tatqiq qilish alohida mavzuni taqozo qiladi.

Taniqli adabiyotshunos, marhum Homil Yoqubov hamasrdagi she'rlar badiiyatiga alohida tohtalib jumladan shunday degan edi: "Boburnoma" jahonning onlab tillariga tarjima qilinib, nashir etigan, u yuzasidan qator tatqiqotlar amalga oshiriganiga qaramay, asar tarkibidagi she'rlar va she'riy parchalar hozirga qadar mahsus tatqiq etilmay kelmoqda. Holbuki, she'riy namunalar badiiylik unsurlari kuchli bo'lgan asarning ajralmas tarkibiy qismidir"¹⁹ "Boburnoma"ni undagi she'riy asplardan ayri tasavvur qilish, taqiq etish biryoqlamalikka sabab boladi. Har bir she'r muayyan voqea, kayfiyat holat munosabati bilan dunyoga kelgan va Mirzo Boburning shahsan o'zi sabab bo'lgan hodisani yanada yorqinroq ochishga xizmat qiladi. Agar Boburning lirikasi ,xususan, uning gazallari va ruboiylari "Boburnoma" voqealari bilan qiyosiy tahlil etiladigan bo'lsa, har bir gazal, har bir ruboiy shoir hayotining qaysi davrida yozilganini aniqlash imkoniyatini beradi . Ustoz M. Shayhzoda Bobur poeziyasi haqida shunaday fikir bildiradi:

Boburning poeziyasi genial lirikaning so'lmas injularidan tuzilgandir. Bu poeziya ajoyib samimiyat, badiiy soddalik, chinakam xissiyot bilan singdirilgandir. O'zining poetic ifodasi jihatidan Bobir klassik poeziyamizda koproq soddalikka uringan shoirdir, desak mubolag'a qilgan bo'lmaymiz. Bobir o'zining g'azal, ruboiy, fardlarida klassik poeziyasining eng yahshi ananalarini davom va taraqqiy etiladi. Uma'lum ruhiy holatlarni ifodalash uchun mashhur bo'lib ketgan badiiy obrazlardan ham foydalanadi:

Qilmadi Farhodu Majnun o'zini rasvo men kabi

Kim, bu nav' ish ish emasdir hech oqil qilg'ulik.

Ma'lum obrazlar ega bo'lgan mundarijani Bobir traditsion ravishda qaytarib turish emas. Hamma badiiy vositalar Bobirning qo'lida hayotiy kayfiyatlarni chinakam haqqoniyat bilan berishga qaratilgandir. Chunki Bobir poeziyasi hamma narsadan avval zor samimiyat bilan ishlagan poeziyadir. "Boburnoma" matnida she'riy parchalar anchagina uchraydi. Adib ularning bayon etilayotgan voqealarga bog'liq ravishda bitiganini eslatib, aksar bir - ikki bayt keltirib o'tadi. Bunday o'rinlar Bobur devonidagi u yoki bu gazal, ruboiyning "biografiyasi"ni tiklashda ham qo'l keladi. Ammo shu bilan birga, shoir goho o'z ichki kechinmalarini she'r bilan izhor ham qiladiki, bular o'z badiiy jihatlarini bilan birga ayni paytda ushbu memuarining tarixiy xossalariga ham bevosita dahildor, albatta. Chunonchi, Bobur yozadi: "Yana dovon oshib Maschog'a kelduk. Xotirg'a kechdikim, mundog tog'din

¹⁸ Karimov N. Ustoz Oybek merosida N. Sharq yuiduzi jurnali, 1997, N -9, 98 bet

¹⁹ Yoqubov H. Saylanma. Ikki jildlik 2- jilt.- Toshkent ,1984, 25 bet

tog'qa aloxon va alomon, viloyatimiz yo'q, erimiz yo'q turmak betaqribdur, xon qoshig'a Toshkantga-o'q boraling''...

Bobur o'zini najot vaimdod kutib brogan kishisi ulug' Xon dodasiga o'z ahvolini she'rda yozib peshkash tutadi:

Yod etmas emish kishini mehnatda kishi,
Shod etmas emish ko'ngulni gurbatta kishi.
Ko'nglum bu g'aribliqta shod o'lmadi hech,
G'urbatta sevinmas emish albatta kishi.²⁰

Ammo "ko'ngil ting'udek shofiy javob "topmaydi . Bu beparvolikdan so'ng yosh podishohning kongli orzuda bo'ladi, kutgan odamlaridan umidi uziladi :

Jonimdin o'zga yori vafodor topmadim,
Ko'nglimdin o'zga mahrami asror topmadim...(89).

Ammo Bobur shunchalar mag'rur va oriyatliki, o'z xotira nomasida bu ruboiy va g'azallarning yozilish sababi to'g'risida izoh berishdan o'zini olib qochib, ularni she'rshunoslik jihatidan izohlagan bo'ladi. Muallifning ozurda dilidagi anduhlarini faqat sichkov kitobxonning o'zi payqab olishi mumkin,xalos. Mana shu Latif she'rlardagi nozik ishoratlar tarjimada qanday berilganini ko'rib o'taylik:

LEYDIN-ESKIN TARJIMASIDA:

(Turkiy)-No one remembers him who is adversity;
A banished man cannot indulge his heart in happiness;
My heart is from joy in this exile;
However, brave an exile has no pleasures
I have found no faithful friend in the world but my soul;
Except my own heart I have no trusty confidant.

BEVIRIJ XONIMDA:

One hears no man recall another in trouble (Mehnat-ta kishi);
No speak of a man as glad in his exile (ghurbat-ta kishi);
My own heart has no joy in this exile;
Colled glad is no exile, man thought he be(albatta kishi)(154).
Except my soul,no friend worth trust found I (Wafadar topmadim);
Except my heart no confidant found I(asrar topmadim)(156).

B.Tekstonda(AQSH):

No one remembers anyone in tribulation./No one gladdens anyone in exile.
/in this exile my heart has not been gladdened./no one can be komforted et oll
In exile (136)
Other then my own soul I never found a faithful friend.
Other then my own heart I never found a confidant(137).

²⁰ Yoqubov H. Saylanma.Ikki jidlik 2-jild.-Toshkent,1984,25-bet

“Boburnoma”da tez-tez hali fors-tojik, hali o‘zbek tilida keltiriladigan anashunday she‘riy parchalarni berishda ingliz mutarjimplari tutgan yol va tadbirlarga nazar tshlasak, har bir tarjimada muayyan bir prinsipga amal qilinaganini koramiz. Leydin-Erskin bunday o‘rinlarda aksar “sozma -soz ,deyarli deyarli hijjalab o;girish” tamoiliga muvofiq keladi, Bevirij xonim ham she‘riy perchalarni nazim bilan o;girish yolidan boradi,biroq kop hollarda misralarni haddan ziyod cho;zadi natijada she‘rning maromi,shiddati sonib ketadi .B.Tekstobolsa, bila’ks Bobur sherlarini nasir bila berish yolini tanlaydi. Bunda u ayni asliyatda she‘riy tarzda ifoda qilinganligini qayd etadi va uning mazmunini she;rga xos ravishda qisqa .lo’nda va ta’sirchan so‘zlar vositasida ifodalshga intiladi. Shoir sherlarining yana bir muhim jihati ularnin “Boburnoma”bilan chambarchas boglanganligidan iborat.Ma’lumki bu qomusiy asarda tarihiy lavhalar va jamiyat hayotida ro’y bargan xodisa va voqealar Boburning chuqur tahlili va mushohadalari asosida tasvielangan. Anashu tahlil va mushohadalar mahsulidan iborat bolgan tarixiy voqea va xodisalarga shoir she‘r orqali o;zining hayotiy tajribalari asosida orttirgan hxulosa va yakunlarini yasaydi.

Tarjimalar bilan birma-bir tanishib chiqsak, ularning har birida muallif dunyo qarashi, dadil fikrlari, har bir lavhada uning bevosita ishtirokini ko‘ramiz. Bobur she‘rlarida o‘zining ishtiroki orqali inson bilan davirning bir-biri bilan uzviy bog‘langanligini alihida takidlagani, masalani bunday o‘zaro bovastalikda tasavvur qilish Bobur ijodining asosiy xususiyatini tashkil etganligini inglizcha tarjimalarda ham yaqqol ko‘ramiz.

“Boburnoma” tarjimonlari bu omillarni Bobur shaxsiyati orqali chuqur o‘rganib, teran his qilganliklarini alohida qayd eti o‘tmoq o‘rinlidir. Ular “Boburnoma” tajimasida Bobur shaxsiyati bilan bog‘liq jihatlariga alohida e’tibor berganlar. Shu maqsadda qaeqda muallifi xususida gap ketgan bolsa, buni mahsus t’kidlash vositasida qayd etganlar. Boburning nozikta’b, istedodli shoir ekanligi, minglab baytlarni yoddan bilishi har bir sharoitga qarab she‘r aytgani uqtirilib, tarjimalarni zarur ilmiy ahborot bilan ta’minlaganlar. Natijada tarjimada Bobur siymosi yana ham bo‘rtib kozga tashlanadi. Tajribadan ma’lumki, mumtoz adabiyot namunalarini tarjima qilish o‘ta mashaqatli va murakkab ish bo‘lib ,tarjimondan katta mahurat va ijodiy layoqatni talab qiladi. Xususan, so‘z o‘yilari, shakilning ma’no tovlanishlarini,ayniqsa, she‘riy asar tarjimasida aks ettirish muayyan mushkulotlar tugdirib,aksar hollarda tarjimonlardan katta mehnat va quntni taqozo etadi.Masalan “Boburnoma”da shunday ruboiy bor:

Yuz shukur dep, Boburki,karimu gaffor,

Berdi sanga Cindu Hindu Mulki bisyor.

Issiqlig’iga gar sanga yo’qtur toqat,

Sovuq yuzini ko’ray desang g’azni bor (Boburnoma,220-221)

Ruboiy Bobur Hayotidagi real voqealar bilan bog‘liq. M’lumki,u Hindistonni egallagandan so’ng ko’p yaqin kishilari beklari va navkarlari bu yerdagi noqulay iqlim sharoitiga chiday olmaydi,yyerda qolishga rozi bo’lmaganlar.Ular orasida Boburga qadiqdon bo’lgan beklaridan Xo’ja Kalon ham bore di. Ketar chog’i u agar eson- omon Cind

daryosidan o'tib iolsam, Hindistonni yana havas qilsam, yuzim qaro bo'lsin", degan mazmunda bayt yozib qoldiradi.

Bobur garchi Hoja Kalonning ketishiga ruhsat bergan va uni G'azna hokimi etib tayinlagan bo'lsa-da, lekin undan qattiq ranjigan, xususan, yuqoridagi bayt kongliga og'ir botgan edi.

Mazkur ruboiy ana shu munosabat bilan yozilgan. G'azni Afg'onistonning qahraton sovuqlari bilan mashhur viloyat hisoblanadi. Bobur ruboiylarida ana shunga ishora qilib, "Hindistonning issig'iga chiday olmay, sovuq erni xohlasang G'azniga bor", deydi. Lekin bu shoirning asosiy maqsadi emas, bu erda yana bir ma'no, tog'rirog'l, piching ham bor. Yuqorida aytganimizdek, Bobur Hoja Kalonni G'azniga hokim qilib yuborgan edi. "Sovuq yuzini ko'ray desang, G'azni bor" misrasidagi "Sovuq yuzi" iborasi orqali Hoja Kalonga ishora qilinadi. Bobur shu tariqa do'stidan ranjiganligi, ko'ngli qolganligini ifodalaydi.

"Boburnoma"ning puscha tapjima qilgan M. Cal'e mazkur bayt ma'nosini hatto nasriy tarjimada ham chiqara olmagan. Qarang:

Если нет тебе сил вынести жару

И если захочешь увидеть лицо холода.

То отправляйся в Газну (М Сале, 340)

Bu o'rinda tarjimon qo'llagan "Литсо холода" iborasi misraning birinchi ma'nosini ifodalaydi, "sovuq yuzi" iborasining ikkinchi, ya'ni inson yuziga nisbat beruvchi ma'nosi ("холодное литсо") tarjimada aks etmagan. Natijada ruboiyning butun mazmuni, undagi chiroyli kinoya va muallif mahorati rusiy zabon kitobxonga mavhum bo'lib qolgan. Yana boz ustiga bu she'rni Ruscha tarjimasi me'yoridan ortiq cho'zilib ketgan:

Если я перейду Синд целий и невредимойб

Пусть почернеет мое литсо раньше чем я вновь захочу увидеть Хинд!

Сто раз быть благодадарен, Бабур, ибо господь всепрошающий,

Дал тебе Синд, Хинд и болше царство.

Если нет тебе сил иыносить жару,

И ты скажешь: "Хочу видеть литсо холода", то у тебя есть Газни (340).

Hoja Kalonga mansub baytdagi "siyoh ro'iy shavam"- "yuzim qora bo'lay" iborasi ruschaga "пусть почернеет мое литсо"- "mayli yuzim qaro tusga kirsin", "mayli yuzim qaro bo'lsin" tarzida to'g'ri tarjima qilingan. U asliyat mazmunini lugaviy jihatdan to'g'ri aks ettiradi. Lekin Sharq xalqlari orasida mashhur bolgan "uyatga qolgan", "sharmanda bo'lgan" mazmunidagi "yuzi qaro" iborasi tushunchasi rus xalqida bormikan?

Xuddi shunday xolni Boburning boshqa bir ruboiysi tarjimasida ham ko'rish mumkin. Bobur shunday yozadi:

Beqaydmanu xarobi siym ermasman,

Ham mol yig'ishtirur laim ermasman.

Qobulda iqomat etdi Bobur dersiz,

Andoq demangiz, myqim ermasmen.

TARJIMASI:

Бродягой стань,но не рабом домашнего хламаья,

Одам и этот мир итот за ниший угол я.

Вродяжничество -не позор , и нишенство -не срам,

Уйти куда глаза глядят-давно моя мечта.

Tarjimon "Qobul" so'zini (talmeh san'ti) tushirib qoldirilgan. "Muqim" so'zining bu o'rindagi ma'nosiga ham to'liq etibor bermagan. Natijada Boburning tarjimaiy holi bilan bog'liq ravishda yozilgan, aniq mazmunga ega bo'lgan ruboiy mazmuni tarjimada mavhumlashib, noaniq bo'lib qolgan. Gap shundaki ohirgi misradagi "muqim"so'zi doimiy degan ma'noni anglatish bilan bir paytda, Qobuldagi Boburdan avval hokimlik qilgan kishining ismini ham bildiradi. "Andoq demangizkim, muqim ermasmen" deganda Bobur o'zining Qobulda muqim emasligi (doimiy yashab qolmasligi) ni ta'kidlash bilan birga Qobulning avvlg'i hokimiga o'hshamasligi, o'z oldiga buyuk orzu va ezgu maqsadlar qo'yganligiga ham ishora qiladi. Bunga o'hshash nozik ma'nolar, so'z tovlanishlari faqat Bobur ijodiga emas, umuman, mumtoz san'atkorlar ijodida ham ko'p uchraydi va ularni tarjimada aks ettirishning hamma vaqt ham iloji bo'lavermaydi.

Endi mazkur roboyni roman va risoladagi tarjimasiga e'tibor qarataylik:

Mazkur ruboiy "Bobur-Yolbars romanida ham bor:

If safe and sound I pass the Sind

Damned if wish again for Hind.

Babur! Give thanks that the mercy of God

Hath give thee Sind and Hind in royalty

Khwaja! If thynstrength fails unde heat,

Turn theyself aside to Ghazni's coid

Agar Sindni sog'-salomat o'tib olsam, Xindni yana qayta orzu qilsam,meni hudo ursin mazmunida talqin qiladi. Asliyat mazmunini aks ettirgan bo'lsa-da, lekin sharqona tushunchalardan ancha yiroq. Leyn Pul "Bobur" romaninig "Hindiston qismida bu ruboiyni quyidagicha talqin qiladi

Babar! Give oll thanks the favour of Gud Most High

If the heats of India make three long for the mountain cold,

Remember the frost and ice that numbet thee in Ghazni of cold!

Bobur! Ollohga barcha rahmatlaringni yog'dir, senga Cind Hindni Bisyor berdi, Hindni issig'iga toqat qilolmasang, yana sovuqni xohlaydigan bo'lsang, esingda tut, eski G'aznani sovuq va muzlari seni kutib turibdi deb ruboiy ruhini ancha -muncha yaqinlashtirsa, Fernand Grenand "Bobur" romaninig "Yo'lbarsning o'ldirilishi "deb nomlagan bobida:

Give thinks, O Baber, to God, the Generous

Who has given you Indian and its broad kingdoms!

If ever the first of its sky weary you,

if the cold of the North leaves one regret in your heart,

Go to-Ghazni!

A proverb ran, "God did not need to invent hell. He already had Ghazni".

Oloho senga barcha narsani berdi, hammasiga shukur qil, maqol borki,-

“Xudo do’zahni ixtiro qilishiga ehtiyoj yo’q chunki senga allaqachon Gaznani ixtiro qilib qo’yibdi, ”-deb hitob qiladi.

“Boburnoma” dagi barcha she’rlar asar voqealariga bog’liq xolda keladi. Hatto Sa’diy, Xofiz, Navoiy kabi ulug’ shoirlarning ijodidan keltirilgan namunalar ham bu o’rinda aniq voqeylikka bog’lanib, aniq jarqyoniy ma’no kasb etadi, deyish mumkin. Shuning uchun she’rlarni tarjima qilmay qoldirib ketish (f. Talbotning qisqartirilgan inglizcha nashrida bo’lganiday) nafaqat asarni badiiy jozibadan mahrum etadi, balki voqealar tasviri, personajlar hususiyati ham ochilmay qoladi. Shunga ko’ra bu borada ingliz tarjimonlari J. Leydin, B. Erskin, A. Beverej xonimlarning xizmatlari alohida e’tiborga molik. Chunki, ular “Boburnomani mahurat bilan ingliz tiliga o’giribgina qolmasdan, asardagi nazmiy namunalarni ham o’z o’quchilariga etkaza olganlar va bu orqali tarjimaviy muqobillikni ta’minlaganlar.

Pokistonda tug’ilib o’sgan muallima va shoira, AQSH fuqarosi Farzona Muun o’zining “Bobur”²¹ deb nomlagan tarixiy va badiiy asar (between History and the bridge of Fiction) o’rtasidagi risolasida Bobur shaxsiyatiga yuqori baho berib,

uning jasurligi, mardligi, bitmas – tugammas muhabbati haqida hikoya qiladi. Falsafiy ruxda yozilgan bu risoladan tashqari Boburiylar haqida oltita qadimgi halq dostonlari va afsonalari asosida yaratilgan asarlarni chop qilayotganini ma’lum qilgan. Muallifning “Bobur” risolasi 35 bobdan iborat bo’lib, bu “Boburnoma” asosida yozilgan. Yuqorida biz tahlildan o’tkazgan Boburning ruboiysi ham asarning 28- bobidan

If safe and sound I pass the Sind,
 Damned if I wish again for Hind.
 Babur Give thanks that the mercy of Allah
 Hath given thee Sind and Hind in royalty
 Khvaja if thy strength fails under heat,
 Turn thyself to Ghazni’s cold! (401)

Bu yerda Hoja Kalon, agar eson – omon Cinddan o’tib olsam, yana Hind orzusini qilar bo’lsam, yuzimqaro bo’lsin degan mazmunda devorga bitadi.

Ancha tajribali Farzona Muun Bobur ruboiysini: Bobur! Olohga barcha rahmadlarini yog’dir, senga Sind, Hindni va katta boyliklarni berdi, Xoja agar sen issiqqa toqat qililmasang, Gaznini sovuq va muzlari seni kutib turibdi” tariqasida o’giran. Albatta, muallif asliyat mazmuniga yaqin tarzda tarjima qilgan o’lsa ham, sharqona tushunchalardan ancha yiroq. “Toj kiygan darvesh” romaninig muallifi Anna Flora Stil ham shu ruboiyga alohida e’tibor qaratgan. Hinddan mutanaffir- nafratlangan, jirkangan Xoja Kalon ketishida devorga ushbuni yozib qoldiradi:

If safe and sound I cross the Saynd,
 Demnet if I ever wish for Hind.

²¹ Farzona Moon, Bobur. Atlantik publishers and distributors, Delhi, 1997

Agar Sinddan eson-omon o'tib olsam ,Hindni yana qayta xoxlasam meni xudo ursin-qabilida bayon qilgan. Bundan g'azablangan Bobur quyidagicha javob qildi deydi – deydi muallif :

Bobur thinkc God who give him Sind and Indi,
Heat of the plains, child of the mountain cold.
Yea! Let the scorch of India bring to his mind
Bitter bite of frost in Gg'azni of old (277).

Mazkur ruboiy tarjimasi ham avvalgi roman va risolalarda berilgan tarjimalardan qolishmaydi . Bobur , senga Sind va Hindni bergan Ollohga rahmat ayt , dalalarni issig'li, toglarni sovug'li ham bor . Ha, aytganday, Hindistonni issig'li ham esingdan chiqmasin, eski Gaznani zaharli sovuqlari ham bor dep ruboiyni ancha muncha inglizchada o'xshatadi. Fikrimizcha bunday o'rinlarda tarjimonlar batavsil ijohlar berish tajribasidan ham foydalanishlari lozim edi.

Albatta , Bobur she'riyatini g'arb roman va risolalaridagi tahlili shuni ko'rsatadik, tajriba sohasida katta tajriba drttirgan iste'dodli shoirlar ham tarjima nazariyasining asosiy qonuniyatlariga befarq qarasa , asliyatni ifodalshda katta xatolarga yo'l qoyishi mumkin . Tarjimon tilni qqanchalik yahshi bilsa, asliyatni qanchalik chuqur o'zlashtirsa , tarjima jarayonining tabiiy qonuniyatlariga qanchalik roya qilsa shunchalik yahshi natijalarga erishadi.

Ingliz yozuvchilari bu yerda e'tiborni shoir barcha asarlarini soda tushunarli bo'lishiga va chuqur mazmuni turli badiiy san;atlar orqali bo'rtirib ko'rsatib xarakat qilganiga qaratishlari lozim edi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Jena Krunnachandra. Baburnama and Babur. Dehli, 1978;
2. Lamb H. Babur the tiger, etc. London, 1962;
3. G'aybulloh As-salom, N. otajonov. Jahongashta "Boburnoma". Toshkent, 1996;
4. Grenard F., Baber. Paris,1930, 1971;
5. H. Beviridge. Some verses by the Emperior Babur, Asian Review, 1911;
6. Farzana Moon. Babur. Dehli, 1997;
7. Z. M. Bobur. "Boburnoma", Toshkent, Sharq. 2002;
8. R. Vohidov. Biz bilgan va bilmagan Bobur. Toshkent,1999;
9. W. Thackston. Baburnama 3 Vols, Cambridge, 1996;
10. Ross, Denison. A collection of poems by the emperor Babur, JRAS, Calcutta, 1910;
11. Babur. Babur-name. Per, M. Sole, Tashkent. 1958.
12. Ergasheva X.Yu. How to start teaching children second languages at home// Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. –Namangan, 2020. Maxcyc son. – B. 407-410. (13.00.00. № 30)

13. Ergasheva X.Y. Teaching second language to Very Young Learners // Pedagogical Sciences/colloquim-journal#13(24) ISSN 2520-6990, December, 2018. – Pages 18-20.
14. Ergasheva X.Y. Communicative approach to second language teaching in preschool education // Horison: Journal of Humanity and Artificial Intelligence#13(24) ISSN 2835-3064. 2023, – Pages 499-502. (Global Impact Factor 9.7)
15. Umarov A.A. Maktabgacha ta’limda til o’rgatish konsepsiya va tamoyillari // Pedagogika nazariyasi// “Xorijiy tillarni o’qitishda innovatsion yondashuvlar” mavzusida Xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya, Namangan, ISSN 18-19-23./ 6 bet, 18 May 2023 yil.
16. Umarov A.A. Pedagogik nazariya va amaliyotda bo’lajak o’qituvchining axborot kompetentsiyasini rivojlantirish konsepsiyasi // Guliston Davlat Universitet Axborotnomasi// Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2023. № 2, UDC 378.147 / 254-258 betlar, 2023-yil 30-iyun.
17. Isakova Maftuna. The most effective techniques for teaching English in EFL and ESP programs// Pedagogical sciences and teaching methods.